



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING YASHASH MANZILLARIDAN UZOQ MUDDATGA KETGAN SHAXSLAR BILAN ISHLASH FAOLIYATI

Xasanov Xurshid Jamol o`g`li

IIV Akademiyasi 308-guruh kursanti

ANNOTATSIYA: Mazkur malakaviy bitiruv ishida profilaktika inspektorining yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar boʻyicha ishlash faoliyati tushunchasi, ahamiyati, kriminologik tavsifi, xususiyatlari, shuningdek yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar boʻyicha ishlash faoliyatini tartibga soluvchi normalar va ularni qoʻllash amaliyoti tahlili, yashash manzillaridan uzoq muddatga ketgan shaxslar boʻyicha ishlash faoliyatiga doir bir qator takliflar va bu boradagi ilgʻor xorijiy davlatlar tajribalari va ularni amaliyotga joriy etish masalalari yoritilgan.

KALIT SOʻZLAR: huquqbuzarlik, kriminologiya, uzoq muddat, amaliyot, muommo, yashash joy, doimiy istiqomat joyi, nazorot, passport-visa, rejim.

ABSTRACT: In this dissertation the concept, significance, criminological description, features of the work of the inspector of prevention with citizens who have returned from abroad for a long time, as well as the analysis of norms governing the work with citizens who have returned from abroad for a long time, a number of proposals for working with citizens who have returned to their home countries for a long time from their place of residence, as well as the experience of advanced foreign countries in this area and their implementation in practice.

KEY WORDS: offense, criminology, long term, practice, problem, place of residence, place of permanent residence, control, passport-visa, regime.

АННОТАЦИЯ: В данной квалификационной работе раскрыты понятие, значение, криминологическая характеристика, особенности работы инспектора по



профилактике над лицами, покинувшими места жительства на длительный период времени, а также нормы, регулирующие трудовую деятельность в отношении лиц, покинувших место жительства. места проживания на длительный период времени и анализ практики их применения, проживания, ряд предложений по трудовой деятельности для лиц, покинувших свои адреса на длительный период времени и опыт передовых зарубежных стран в этом отношении и вопросах их реализации.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: правонарушение, криминология, длительный срок, практика, проблема, место жительства, место постоянного проживания, контроль, паспорт-виза, режим.

Profilaktika inspektorining yashash manzilidan uzoq muddatga ketgan shaxslar bilan ishlash faoliyatini tashkil etishda respublikamizda qabul qilingan va qabul qilinayotgan qaror va farmonlarga asosan faoliyat yuritadi. Uzoq muddatga chet elga ketib turli ko‘rinishdagi jinoyatlar qo‘rboni bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining fuqarolarni hamda doimiy yashayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni qaytarishga ko‘maklashadi, ularda O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligini tasdiqlovchi xujjatlar bo‘lmagan taqdirda esa, belgilangan tartibda ularning shaxsini aniqlash choralari ko‘radi hamda ularga konsullik yig‘imlari va boshqa yig‘imlarni undirmasdan O‘zbekiston Respublikasiga qaytish huquqini beruvchi xujjatlarni rasmiylashtirish tartibi takomillashtirildi.

Uzoq muddatga ketgan shaxs – doimiy yashash manzilidan turli sabablarga ko‘ra, ya‘ni: ishlash, davolanish, dam olish, sayohat qilish, xizmat safari, o‘qish, tanishlarini ko‘rib kelish va boshqa maqsadlarda respublika hududidan bir oydan kam bo‘lmagan muddatga chiqib ketgan shaxslar. Respublikamizda eng oliy va eng ulug‘ qadriyat sifatida inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shaxs huquqlari himoyasiga alohida e‘tibor qaratildi. Ayniqsa, fuqarolar, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish hamda tartibga solish maqsadida mamlakatimizda tadrijiy ravishda



konunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilinib davr talabi asosida ularning ayrimlari yangi tahrirda qabul qilindi hamda ayrimlariga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi.

Davlatimiz Rahbari Sh.M.Mirziyoevning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida ta'kidlaganlaridek, “Konstitusiyamizda kafolatlangan fuqarolarning erkin harakatlanish huquqlarini ta'minlash maqsadida propiska va viza berishdagi qiyinchiliklar bartaraf etildi. Dunyodagi 39 ta mamlakat fuqarolariga viza berish tartibining soddalashtirilgani, elektron viza tizimi joriy qilingani natijasida yurtimizga bu yil qariyb 4 million xorijlik sayyoh tashrif buyurdi.

Shuningdek, so'nggi yillarda chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga mamlakatimiz tadbirkorlari bilan tashqi iqtisodiy faoliyat erkinligi hamda respublika iqtisodiyotining chet el investisiyalar uchun ochiqligi, chet el fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasiga kirishi va respublikamizda bo'lishi uchun mavjud bo'lgan ko'plab ma'muriy taqiqlar va cheklovlarning olib tashlanishi, ishbilarmonlik aloqalari va turizmning rivojlanishi – bularning bari respublikamizga chet el fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning tashrifi oldingi davrlarga nisbatan keskin ortishiga olib keldi.

Bu albatda ijobiy holat biroq, insoniyat jamiyati kelib chiqishi tarixidan bizga ma'lumki, huquq paydo bo'lishi bilan bir qatorda majburiyat ham paydo bo'lgan shuningdek, majburiyatni bajarmaslik yoki huquq (vakolat) doirasi, chegarasidan chiqish natijasida huquqbuzarlik ham sodir etilgan. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'z zimmlaridagi majburiyatlarni bajarmaganida shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etganida, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bo'yicha yuridik javobgarlikka tortilishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, mazkur Farmonni ijrosini ta'minlash maqsadida 2017 yil 11 iyulda «Ichki ishlar organlarining migrasiya jarayonlari va fuqarolikni rasmiylashtirish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida» PQ-3126-sonli qarori qabul qilinib unga asosan profilaktika inspektorlari va migrasiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmalari xodimlari bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarni oldini olish



chora-tadbirlar amalga oshiradilar. Jumladan: a) fuqarolardan va yuridik shaxslarning vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni tahlil qilib va ularni hal etish bo'yicha ishlarni tashkil etish; b) O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasidan o'tishning belgilangan tartibini buzishga moyil shaxslarni aniqlash ular bilan yakka tartibda profilaktika suhbatlarini tashkil etish; v) huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish, aholi orasida pasport tizimi sohasidagi qonunchilikning talablarini tushuntirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan.

Uzoq muddat xorijiy davlatda bo'lib yashash manziliga qaytgan yoki odam savdosidan jabrlangan fuqarolarni tibbiy ko'rigi va kasallik aniqlanganda davolanishini tashkil qilish. Uzoq muddat xorijiy davlatda bo'lib yashash manziliga qaytgan yoki odam savdosidan jabrlangan fuqarolarning tibbiy ko'rigi hududiyprofilaktika inspektori tomonidan taqdim etilgan ro'yxat asosida hududiy davolash- profilaktika muassasasi (qishloq vrachlik punkti, poliklinika) tomonidan amalga oshiriladi. Tibbiy ko'rik ixtiyoriy ravishda uzoq muddat xorijiy davlatda bo'lib yashash manziliga qaytgan yoki odam savdosidan jabrlangan fuqaroning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Tibbiy ko'rik umumiy amaliyot shifokorining ko'rigi, umumiy qon, RW, OIV infeksiyasi va balg'am tekshiruvlaridan tashkil topadi. Tibbiy tekshiruv natijalariga ko'ra, qo'shimcha tekshiruvlar yoki ixtisoslashgan mutaxassis maslahatiga zarurat bo'lganda fuqaro tuman (shahar) tibbiyot birlashmasiga yo'naltiriladi. Tibbiy ko'rik natijasida kasallik aniqlanganda fuqaroga ambulator yoki tuman (shahar) tibbiyot birlashmasida belgilangan tartibda stasionar sharoitida davo muolajalari amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunlining 44-moddasi talablariga asosan huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek ushbu qonunning 21-moddasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga tegishli hududda jamoat tartibini ta'minlashda, shu jumladan fuqarolarning kelishi va ketishi hisobga olinishini tashkil etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ko'maklashishi belgilanganligini inobatga olib, uzoq muddatga chet elga chiqib ketayotgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularni turli xil ko'rinisdagi tahdidlardan ogoh etish,



huquqbuzarliklar, jumladan odam savdosining qurboni bo'lib qolishining va turli diniy ekstremistik oqimlar ta'siriga tushib qolishining oldini olish maqsadida, uzoq muddatga yashash joylaridan chet elga chiqmoqchi bo'lgan fuqarolarning mahalla fuqarolar yig'inida fuqarolar yig'ini oqsoqoli va hudud profilaktika (katta) inspektori belgilangan yakka tartibdagi va viktimologik profilaktik suhbatdan o'tib, maxsus kitobda qayd etilganidan keyin, fuqarolar yig'ini tomonidan bu haqda berilgan ma'lumotnomaga asosan ularning chet elga chiqishlariga ruxsat etish tartibini joriy etish lozim. Mahalla fuqarolar yig'inida bu toifa fuqarolarning hisobining yuritilishi uzoq muddatga yashash joylaridan chet elga turli maqsadlar bilan chiqib ketayotgan fuqarolar hisobini tizimli olib borishga hamda ularning markazlashgan hisobini yuritishga xizmat qiladi.

Hududiy profilaktika inspektori davolash-profilaktika muassasasining murojaatiga muvofiq fuqaroning manzilini aniqlash va uni tibbiy ko'rikka jalb qilish yuzasidan amaliy yordam ko'rsatadi. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha har oy yakunida hududiy profilaktika inspektori va davolash-profilaktika muassasasining hisobotlari ro'yxat asosida solishtiriladi hamda imzosi bilan tasdiqlanadi. Hisobotlar ro'yxati ilova qilingan holda oy yakunida profilaktika inspektori tomonidan tuman (shahar) ichki ishlar bo'limiga va davolash- profilaktika muassasasi tomonidan tuman (shahar) tibbiyot birlashmasiga taqdim etiladi. Tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi tomonidan hududiy profilaktika inspektorlari va boshqa manbalardan qabul qilib olingan uzoq muddat xorijiy davlatda bo'lib yashash manziliga qaytgan yoki odam savdosidan jabrlangan fuqarolar ro'yxati umumlashtiriladi va oy yakunida tibbiyot birlashmasiga taqdim etiladi. Tuman (shahar) tibbiyot birlashmasi ichki ishlar bo'limidan olingan umumlashtirilgan ro'yxatni hududiy davolash profilaktika muassasalaridan (qishloq vrachlik punkti, poliklinika) olingan va umumlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazilganlar ro'yxati bilan solishtiradi hamda tibbiy ko'rikdan o'tmaganlar mavjud bo'lsa ularni ichki ishlar bo'limi bilan hamkorlikda tibbiy ko'rikka jalb qilishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'radi. Har oy yakunida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobot tuman (shahar) ichki ishlar bo'limi tomonidan viloyat va unga tenglashtirilgan ichki ishlar boshqarmasiga, tibbiyot birlashmasi tomonidan sog'liqni saqlash boshqarmasiga taqdim etadi.



Viloyat va unga tenglashtirilgan ichki ishlar hamda sogʻliqni saqlash boshqarmalari hududlardan qabul qilib olingan hisobotlarni umumlashtiradi va oʻzaro solishtiradi, shu bilan birga solishtirsak hisobotlarni tahlil qilib, natijasiga koʻra hamkorlikdagi aniq chora-tadbirlar belgilaydi. Viloyat va unga tenglashtirilgan ichki ishlar va sogʻliqni saqlash boshqarmalari tahliliy hisobotlarni oʻzining yuqori turuvchi vazirligiga har oy yakunida taqdim etib boradi, bunda ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun idoraning shaxsan birinchi rahbari javobgar boʻladi. Barcha davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolarning oʻzini oʻzi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari uzoq muddatga xorijiy davlatlarga ketgan xodimlari va ularning uzoq muddatga xorijiy davlatlarga ketgan yaqin qarindoshlari haqida ichki ishlar organlariga xabar qiladi deb berilgan boʻlib lekin ushbu faoliyatning tartibi koʻrsatilmagan, ya'ni ular haqida qanday tartibda habar beriladi yoki habar berish muddatlari va shunga oʻxshash strukturasi shakllantirish lozim.

Xorijiy davlatlarga uzoq muddatga ketgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari hamda doimiy yashovchi fuqaroligi boʻlmagan shaxslarining ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari va xavfsizligini ta'minlash bilan bogʻliq faoliyatning yoʻnalishlari belgilanib unda xorijiy davlatlarga uzoq muddatga ketgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari hamda doimiy yashovchi fuqaroligi boʻlmagan shaxslarining hisobini yuritish deb berilgan, bunda ushbu shaxslarning hisobi qanday tartibda yuritilishi koʻrsatilmagan. Shuningdek, Xorijiy davlatlarga uzoq muddatga ketgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari hamda doimiy yashovchi fuqaroligi boʻlmagan shaxslarining ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari va xavfsizligi qanday ta'minlanadi, bu jihatlarini kengroq yoritish maqsadga muvofiq. Masalan, boshqa mamlakatlarda Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari hamda doimiy yashovchi fuqaroligi boʻlmagan shaxslarining ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari buzilgan taqdirda qancha muddat ichida va qaerga yoki kimga murojaat etilishini yoritib berish lozim.

Xorijiy davlatlarga uzoq muddatga ketgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari hamda doimiy yashovchi fuqaroligi boʻlmagan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy huquqlari va xavfsizligini ta'minlash maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi sogʻliqni saqlash vazirligi, Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi qaror qiladi deb berilgan boʻlib biroq ushbu



vazirliklar tarkibida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi ko'rsatilmagan bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini ham kiritish ko'zda tutilgan.

RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2020. – 76.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. Rasmiy nashr.
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi. Rasmiy nashr. – T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2019.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T., «O'zbekiston», 2021. – 56 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T,«O'zbekiston»,2017.–48 b.
6. Mirzajanov Q. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarining oldini olishda huquqiy tarbiya vositalarining ahamiyati. Toshkent 1997.
7. Abdurasulova Q.R. Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning oldini olish muammolari // Qonun himoyasida. –2001. –№ 1. –23–24-b.
8. “Yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.
9. asoslarini Миршарапов А. МИНИ-ФУТБОЛ БИЛАН ШУҒУЛЛАНУВЧИ КУРСАНТЛАРНИНГ ФУНКЦИОНАЛ ВА ЖИСМОНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ҲОЛАТИ //Fan-Sportga. – 2023. – №. 2. – С. 99-101.
10. Umarxo'jayev Asadbek Shuhratjon o'g'li, & Maxamadov Rustam Xabibullayevich. (2023). HUQUQBUZARLIKLARNI FOSH ETISHDA AXBOROT TECHNOLOGIYALARINING ROLI ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 17(2), 112–115. Retrieved from